



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz

№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 336 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarining qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
Sabina Saitmurodova Olim qizi	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
Komolova Iroda Xamidullayevna	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
G'aniyeva Maloxat Odilovna	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
Shasaidova Lola Shamaksudovna	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
Сейтова З. П.	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
Okilova Kamola Sadulloevna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
Davronova Zarrina Baxtiyorovna	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
Musayeva Aziza Ibrohim qizi	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
Sharipova Shaxnoza Xasanovna	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
Ibragimova Venera Azadovna	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
Raxmonova Gavhar Nuritdinovna	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
Samarova Shoxista Rabidjanovna	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	



JADIDLAR TOMONIDAN DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMALARINING NASHR ETILISHI

Aslonov Madamin Mansurovich

Buxoro shahar

24-son "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internati direktori
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro jadidlari faoliyati va ular tomonidan nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalar, ulardagi ta'lim-tarbiya orqali ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish, millat va vatanni istiqloлга boshlaydigan yangi avlodni tarbiyalab yetishtirish masalasi haqida fikr yuritilib, ushbu faoliyat natijasida o'sha davrda darsliklar yaratish, ta'lim sohasining yuksalishiga ulkan hissa qo'shganligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: Buxoro jadidlari, o'quv qo'llanma, "usuli jadid" maktablari, darslik, maorif, zamonaviy ta'lim, malakali kadrlar, davlat arboblari, ma'naviyat, madaniyat, taraqqiyot.

Abstract: This article examines the activities of the Bukhara Jadids and the textbooks and teaching manuals they published. It discusses their efforts to fundamentally reform the socio-political system through education and upbringing, as well as their contribution to educating a new generation capable of leading the nation and the homeland toward independence. The study scientifically and theoretically substantiates that these activities made a significant contribution to the development of textbook writing and the advancement of education during that period.

Key words: Bukhara Jadids, teaching manual, Usuli Jadid schools, textbook, public education, modern education, qualified personnel, statesmen, spirituality, culture, development.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность бухарских джадидов, а также созданные и изданные ими учебники и учебные пособия. Освещаются их усилия по коренному реформированию общественно-политического строя посредством образования и воспитания, а также роль в подготовке нового поколения, способного привести народ и страну к независимости. Научно-теоретически обосновано, что данная деятельность внесла значительный вклад в создание учебников и развитие системы образования того периода.

Ключевые слова: бухарские джадиды, учебное пособие, школы "усули джадид", учебник, народное образование, современное образование, квалифицированные кадры, государственные деятели, духовность, культура, развитие.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda tarixiy merosni yosh avlod ongiga singdirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan jadidlar tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarni ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganish, ularning ta'lim taraqqiyotiga qo'shgan hissasini yoritish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Ayniqsa, Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyati, yangi usul maktablari uchun yaratilgan darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarining mazmuni va ahamiyatini tadqiq etish milliy pedagogika tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning obyekti Buxoro jadidlari tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalar hamda ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rnidan iborat.

Tadqiqotning predmeti jadidlarning darslik yaratish faoliyati, ularning mazmun-mohiyati, pedagogik g'oyalari va ta'lim tizimi rivojiga ko'rsatgan ta'sirini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro jadidlari tomonidan nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarining yaratilish tarixi, mazmuni hamda ularning milliy ta'lim taraqqiyotidagi ilmiy-pedagogik ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Buxoro jadidlarining darslik yaratish faoliyatini tarixiy manbalar asosida tahlil qilish;
- jadidlar tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarining mazmuni hamda pedagogik xususiyatlarini yoritish;
- ushbu darsliklarning ta'lim tizimi va ma'rifat taraqqiyotidagi o'rni baholash;
- jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyatining zamonaviy ta'lim rivojidagi ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslab berish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jadidlarning xalq maorifidagi islohoti ularga yangi usuldagi maktablar uchun darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr etish zaruriyatini taqozo etdi. Jadid ta'lim muassasalarining muvaffaqiyatli faoliyati ko'p jihatdan yangi uslubchilarning keng ko'lamli o'quv va nashriyot ishlarining mavjudligiga bog'liq edi. Shuning uchun jadidlar faoliyatining bu sohasi hayotiy ahamiyat kasb etdi.

Jadidlar tarafdorlaridan biri, toshkentlik muallim Saidrasul Aziziy (1886–1933) o'qitishning tovush uslubiga nisbatan eski o'zbek tilida ilk asar - "Ustodi avval" ("Birinci muallim")ni tuzdi. Ushbu juda mashhur qo'llanma 1900-yilda paydo bo'lgan, keyin qisqa vaqt ichida turli nashrlarda 17 ta nashrdan o'tgan. Shunday qilib, 1909-yilda bu darslik 2000 nusxada nashr etilgan. O'z vaqtida eski usul maktab va madrasani tugatib, rus tilidagi maktabda dars bergan birinchi darslik muallifi. Ruhoniylar vakillari unga dushmanlik bilan munosabatda bo'lishdi va unga "kofir" laqabini berishdi.

Akademik V. V. Bartold Saidrasul Aziziyni o'qituvchilik faoliyatida qandaydir islohot kiritgan mahalliy o'qituvchilardan biri deb ataydi. U shunday deb yozadi: "Mahalliy o'qituvchilarning o'zlari o'qitishda qandaydir islohotlarni amalga oshirdilar. Seyid-Rasul Seyid-Azizov (Saidrasul Aziziy) tovush usuli yordamida savod o'rgatish uchun boshlang'ich darsligini ("Ustod-i avval", "Birinci muallim") tuzgan". 1905-yilda "Rossiya Turkistoni" gazetasi S. Aziziy darsligining xizmatlarini qayd etib, uni asl va foydali deb topdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy O'rta Osiyodagi yangi usul maktablari o'qituvchilari va talabalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalarining birinchi mualliflaridan biri hisoblanadi. U nashriyot ishlarida faol ishtirok etgan, "Alifboi maktabi islomiya" ("Islom maktabi ABC", 1906), "Asbobi savod" ("Bilim mavzusi", 1906), "Alifboi maktabi islomiya" kabi o'quv-uslubiy kitoblar muallifi. "Muntahabi chug'rofiyo'i umumi" ("Umumiy geografiyadan saylanmalar", 1906), "Kitobat-ul-atfol" ("Bolalar uchun kitob", 1908), "Amaliyoti islomiya" ("Islomiy xulq", 1908), "Muxtasari tarixi islom" ("Islom tarixi qisqacha", 1909), shuningdek, Turkiston, Buxoro va Xiva xaritasi (1913) va hokazo. M. Behbudiyning ushbu darsliklari "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnali sahifalarida doimiy e'lon qilingan.

Samarqandlik jadid domla Abduqodir Shakuriy o'z maktabi uchun darsliklar yozgan, ularni nashr etishda o'z mablag'i hisobidan foydalangan. Bunga uning Xoja Muin Shukrullo bilan hammualliflik qilgan "Rahnamoi savod" ("Savodxonlik yo'nalishi") darsligi misol bo'la oladi. Shuningdek, A. Shakuriy "Jome-ul-hikoyot" ("Hikoyalar to'plami") asarini yozgan. Bu antologiyada jahon adabiyoti klassiklarining qisqa, ammo ibratli hikoyalari - Firdavsiy, Krilovning ertaklari va Lev Tolstoy qissasi hamda "Zubdat-ul-ashor yo xud adabiyoti milli forsi va Turki" ("She'rlar to'plami yoki forsi va turkiy xalq adabiyoti") asarlaridan foydalanilgan.

Xoja Muin Shukrullo "Guldastai adabiyot" ("Adabiyot guldastasi") antologiyasi tuzuvchisi, "Xonish" ("Mutolaa"), "Ro'xbari savod" ("Savod o'rgatish yo'riqnomasi") va boshqa darsliklar muallifi bo'lgan. Asarlar "Nashriyoti Shakuriy"da chop etilgan. Ular "Oyina" jurnalining aksariyat sonlarida e'lon qilingan va tahririyat orqali xarid qilish mumkin bo'lgan. Masalan, "Guldastai adabiyot" yuqori sifatli qog'ozda, 25 varaq hajmida, qalami qo'lyozma shaklida chop etilgan. Mundarijasi: forsi va turkiy, milliy, diniy, tarbiyaviy she'rlar. Shoir va tuzuvchi Xoja Muin Shukrullo o'g'li - muallim. Asarni "Oyina" tahririyatidan xarid qilish mumkin bo'lgan. Narxi 13 tiyin. Tahririyat tomonidan pochta xarajatlari hisobga olingan, maktablar va distribyutorlar uchun chegirmalar taqdim etilgan.

Bir qancha darsliklar muallifi yana bir yangi usul o'qituvchisi Abduqodir Shakuriyning shogirdi Ismatullo Rahmatullozoda edi. Uning birinchi qo'llanmasi "Rahbari maktab yo xud alifboi toza ba tarzi usuli savtiya" ("Maktab o'qituvchisi yoki tovush usuli yordamida yangi alifbo") deb nomlanib, 1913-yilda tovush-harf-bo'g'in usulida tuzilgan va 1917-yilgacha uch marta qayta nashr etilgan. Ushbu darslikning so'zboshisida: "Har qanday savodsiz odam, agar u ushbu asarni qiziqish va xohish bilan ishlatasa, qisqa vaqt ichida o'qish va yozishni o'rganadi", deb ta'kidlangan.

Ismatullo Rahmatullozoda 1914-yilda "Ilmi hisob" ("Arifmetika ilmi"), "Kavoidi Forsiya" ("Fors tili qoidalari"), "Talimi Jug'rofiya" ("Geografiya o'qitish") kabi Shakuriy maktabi o'quvchilari uchun darsliklarni tuzdi. Mullo Muhammad Rasuliy "Rahbari forsi" ("Fors tili qo'llanmasi") va "Muntahab-ul-guliston yo qiroati forsi" ("Gulistondan saylangan yoki forsiy o'qish") darsliklarini tuzgan.



Yangi usuldagi maktablarda geografiya kursini o'qish uchun darsliklar, asosan, Abdurashid Faxriddinovning Qozon tatar shevasida yozilgan ikkita kitobdan iborat "Geografiya" darsligi va Munavvarqori Abdurashidxonovning o'zbek tilida tuzilgan "Yer yuzi" qo'llanmasi edi. Ikkinchisi muallif tomonidan "Geografiya" asosida tayyorlangan bo'lib, M. Abdurashidxonov darsligini tahlil qilish orqali birlamchi manba - Faxriddinov qo'llanmasini baholash mumkin bo'ladi. "Yer yuzi" 72 sahifadan iborat nozik, kichik formatdagi kitobdir.

G. Andreev "Turkiston vedomosti" gazetasida Munavvarqori Abdurashidxonovning geografiyaga oid kitobini tanqid qilar ekan: "Rossiya manfaatlarini nuqtai nazaridan yangi usuldagi maktabning bunday kitobi hech qanday foyda keltira olmaydi. Chunki u boshqa davlatlar haqida bo'lgani kabi Rossiya haqida ham ko'p gapiradi va bu ma'lumotlar geografik xususiyatga ega emas, faqat statistik ma'lumotdir", deb yozgan.

Abdulla Avloniy 1909–1917-yillarda o'zbek tilida 6 qismdan iborat "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Adabiyot yoxud milliy she'rlar", "Gulistoni maktab" ("Maktab gulzori") kabi darsliklar yozgan. "Birinchi muallim" kitobi yangi usuldagi jadid maktablarining boshlang'ich sinflari uchun mo'ljallangan edi. Bu shunday zarur va samarali darslik ediki, u 1917-yilgacha 5 marta qayta nashr etilgan. Uch marta qayta nashr etilgan "Ikkinchi muallim" kitobi o'quvchilarning og'zaki nutqini, to'g'ri intonatsiya va obrazli o'qishni rivojlantirishga qaratilgan edi. Unda 50 dan ortiq she'riy va nasriy asarlar jamlangan.

Buxoro amirligi hududida darslik va o'quv qo'llanmalarini tuzish va tarqatish nihoyatda ko'p mehnat talab qiladigan, hatto chidab bo'lmas ish edi. Buxoro jadidlari mahalliy hokimiyatlarning taqiqlari va ta'qiblariga qaramay, o'z ona tillarida darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr etishga muvaffaq bo'ldilar.

Birinchi buxorolik jadidchilardan biri Mirzo Abdulvohid Munzim 1908-yilda yangi maktablar uchun "Rahbari xat" ("Yozuvga qo'llanma") deb nomlangan 21 betdan iborat asarini e'lon qilib, so'zboshida shunday yozgan edi: "Biz buni yosh bolalarning yozishni osonlashtirish uchun hurmatli o'qituvchilar diqqatiga taklif qilamiz". Munzim asarining afzalligi shundaki, muallif ikki xil yozish usulini taklif qiladi:

Boshida talaba qizil chiziq bo'ylab har bir harfning bir necha qatorini yozishi kerak. O'quvchi yozish ko'nikmasiga ega bo'lsa, "Rahbari xat"da emas, balki boshqa daftarda yozishga to'g'ri keladi.

O'qituvchi bolaning barmoqlarini ushlab, qalamni qizil chiziq bo'ylab harakatlantirishi va bolani asta-sekin yozishga o'rgatishi kerak. Bolalar tezda yozishni xohlashadi, lekin bu ularning qo'l yozuviga zarar yetkazishiga olib keladi. Shuning uchun bu bosqichda tez yozish tavsiya etilmaydi.

Ushbu kitobning bosma nusxalarida nashriyotning yili va nomi yozilmagan. "Rahbari xat"ning oxirgi sahifasida Munzimning "Maktab" qasidasi bor. Bu qasida 22 baytdan iborat, ya'ni 1914-yilda "Oyina" jurnalida bosilgan qasidaning jurnal nashridan 9 bayt kam. Umuman olganda, bu qasida muallif tomonidan 1908-yilda Buxoroda "usuli jadid" tipidagi birinchi tojik maktabi shakllangan davrda yaratilgan.

Buxoro jadidlarining e'tirof etilgan yetakchilaridan biri Sadriddin Ayniyning uslubiy faoliyati juda samarali bo'ldi. U "Tartil-ul-Kuryon" ("Qur'onni to'g'ri o'qish", 1909), "Zaruriyoti diniya" ("Diniy nasihat", 1914) va "Tahzib-us-sibyon" kabi darslik va kitoblar muallifidir. "Ma'rifat yoshlari" 1910-yilda birinchi, 1917-yilda ikkinchi marta tojik tilida nashr etilgan. Bu asarlar Buxoro jadid maktablari orasida keng tarqalib, Turkistonning ayrim jadid maktablarida, xususan, Ismatullo Rahmatullozoda muallimligida Mullo Sharif o'z uyida Samarqand shahrining Orifxo'ja mahallasida tashkil etilgan yangi usuldagi "Maorif" ("Ma'rifat") maktabida ham qabul qilingan. 1915-yilda S. Ayniy bu maktabga o'zining "Tahzib-us-sibyon" mutolaasining 7 nusxasini sovg'a qiladi.

Sadriddin Ayniyning "Tartil-ul-Kuryon" asari muqaddima va 28 qismdan iborat edi. Har bir qism alohida masalaga bag'ishlangan bo'lib, suhbat tarzida taqdim etilgan. Uni S. Ayniy o'sha davr ilm-fanining yutuqlarini hisobga olib, Qur'onni chuqur o'rganish uchun tuzgan va bu fan bo'yicha darslik hisoblangan. S. Ayniyning yana bir kitobi "Zaruriyoti diniya" ham o'quv qo'llanmasi bo'lib, maktab o'quvchilari orasida mashhur bo'lgan. Bu din va ibodat bo'yicha qo'llanma bo'lib, unda Alloh taoloning timsoli, farishtalar, payg'ambarlar, barcha muqaddas kitoblar, Qur'on tarixi, uning ma'nosi, mo'minning amallari va taqdiri, ilohiyot qoidalari, ibodatlar hamda boshqa ko'plab ma'lumotlar mavjud. "Tartil-ul-Kuryon" va "Zaruriyoti diniya" o'sha paytlarda islom dini asoslari, axloq va dunyoqarashni o'rganuvchi talabalar uchun bebaho darslik bo'lgan. Ular ma'naviy-axloqiy jihatdan o'sish uchun yangi turdagi maktab o'quvchilari va o'qituvchilariga tavsiya etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy-pedagogik, qiyosiy-tahliliy, manbashunoslik va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini Buxoro jadidlari faoliyati, ular tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalariga oid ilmiy adabiyotlar, tarixiy manbalar hamda arxiv materiallari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy metod orqali jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati va yangi usul maktablari uchun yaratilgan darsliklarning vujudga kelish omillari hamda ularning ta'lim tizimidagi o'rni o'rganildi.

Qiyosiy-taqqoslash metodi yordamida Buxoro jadidlari tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarining mazmuni, pedagogik g'oyalari va o'quv materiallarini tashkil etish xususiyatlari o'zaro taqqoslandi. Shu-



ningdek, turli jadid mualliflarining darslik yaratishdagi yondashuvlari hamda ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

Manbashunoslik metodi asosida jadidlar tomonidan yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, davriy matbuot materiallari va mazkur mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, ularning ishonchliligi hamda ilmiy ahamiyati baholandi.

Tizimli yondashuv asosida esa jadidlarning darslik yaratish faoliyati ma'rifiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida kompleks o'rganildi hamda uning milliy ta'lim taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

Qo'llanilgan metodlar natijasida Buxoro jadidlari tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalar o'z davrida ta'lim mazmunini yangilash, zamonaviy pedagogik g'oyalarni keng joriy etish hamda milliy ma'rifat rivojiga sezilarli hissa qo'shganligi ilmiy dalillar asosida yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shunday qilib, jadidlar tomonidan o'quv-uslubiy kitoblar, didaktik va pedagogik qo'llanmalarni to'plash va nashr etish ularning nashriyot faoliyatining muhim yo'nalishiga aylandi. Bu esa dastlab O'rta Osiyoda ma'rifiy nashriyotda dunyoviy va boshqa Yevropa unsurlarining shakllanishiga xizmat qildi. Bu jarayonga salmoqli hissa qo'shgan O'rta Osiyo jadidchiligidan ko'zga ko'ringan namoyandalari Saidrasul Aziziy, Saidahmad Vasliy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Sadridin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Siddiqiy Ajziy, Xoja Muin Shukrullo, Munavvarqori Abdurashidxonov, Muhammad Rasuliy, Ismatullo Rasuliy, Ismatullo Qo'dorima, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy va boshqalar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Buxoro jadidlari tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalar o'z davrida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yangi usul maktablari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda milliy ma'rifat taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Jadidlarning pedagogik qarashlari va darslik yaratish tajribasi nafaqat yosh avlodning bilim saviyasini oshirishga, balki ularda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, ma'naviy yetuklik va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilgan.

Tahlillar natijasida jadidlar tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarda ta'limning ilmiylik, izchillik, tushunarlik va amaliy yo'naltirilganlik tamoyillariga alohida e'tibor qaratilgani aniqlandi. Ularning mazmuni o'sha davr ta'limini yangi bosqichga olib chiqishda hamda milliy pedagogika taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratishda muhim omil bo'lgan.

Shu bilan birga, jadidlarning pedagogik merosi va ular tomonidan yaratilgan darsliklarning ilmiy-pedagogik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish, ularni zamonaviy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish hamda keng ilmiy muomalaga kiritish zarurati mavjud.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

- Buxoro jadidlari tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarni ilmiy-pedagogik jihatdan kompleks tadqiq etish bo'yicha izlanishlarni kengaytirish;
- jadidlarning pedagogik merosi va darsliklaridan oliy hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogika, ta'lim tarixi va ma'naviyat fanlarini o'qitishda qo'shimcha manba sifatida foydalanish;
- jadid darsliklarining zamonaviy alifbo asosidagi ilmiy-tanqidiy nashrlarini tayyorlash va ularni raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish;
- jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati va darslik yaratish tajribasini yoshlar o'rtasida targ'ib etishga qaratilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va ma'rifiy loyihalarni keng yo'lga qo'yish.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi jadidlarning boy ilmiy-ma'rifiy merosini asrash, uni keng ommalashtirish hamda milliy ta'lim tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir." – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 497.
2. Dolimov U. "Turkistonda jadid maktablari." – Toshkent: Universitet, 2006.
3. Бартольд В. В. Туркистон маданият ҳаёти тарихи. – Ленинград, 1927. – Б. 136.
4. Шарипов Ж. Бадиий таржималар ва моҳир таржимонлар. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 106.
5. Aslonov M. Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyoti: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – B. 40.
6. Maxmadaminov A. Shinokhte andar risolaho arizishmand va dasturhoi sudmand // Sayyid Ahmadi Vaslii Samarqandi. Madaniyat va vosoif. Shariati islomiya va taraqqiyoti madaniya. – Dushanbe: Shujoiyon, 2011. – B. 15.



7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. – F. 47. – Op. 1. – D. 1065. – LI. 346–346.
8. Mullo Abdulqodir Shakuriy. Zubdat-ul-ashor yo xud adabiyoti milli forsi va Turkiy. – Samarqand, 1329 (1911).
9. Xoja Muin-muallim ibni Shukrullo. Guldastai adabiyot. – Samarqand: Nashriyoti Shakuriy, 1914. – B. 25.
10. Guldastai adabiyot // Oyina. – 1914. – № 16. – B. 288.
11. Mullo Ismatullo (Rahmatullozoda). Rahbari maktab yo xud alifboi toza ba tarzi usuli savtiya. – Toshkent: Osiyo, 1913.
12. Mullo Ismatullo (Rahmatullozoda). Ilmi hisob. – Samarqand: Nashriyoti Shakuriy, 1333 (1914); Tarixi Islom. – Samarqand: Nashriyoti Shakuriy, 1333 (1914).
13. Majid Qodiriy. Hissob. Juzi 2. – Toshkent, 1914.
14. Сиддиқов О. Мухтасари тарихи Қирғизистон. – Уфа, 1913. – Б. 79.
15. Андреев Г. Туркистонда янги усул мактаблари ("Адабиёту" кўшиқлар тўпламидан куйлаш) // Туркистон газетаси. – 1915. – № 276. – 11 декабрь.
16. Tabarov S. Munzim. – Dushanbe: Irfon, 1991. – B. 29.
17. Ayniy X. Sadridin Ayniy hayoti (qisqa xronologik eskiz). – Dushanbe: Donish, 1982. – B. 45.
18. Ayniy S. Tahzib-us-sibyon. – Tabi avval. – Samarqand: Matbaai "Yangi ish", 1328.
19. Ayniy S. Tahzib-us-sibyon. – Tabi duvvum. – Samarqand: Matbaai Gazarov, 1336 (1917). – B. 44.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.